

ILK O'RTA ASRLARDA SUG'DDA XO'JALIK MUNOSABATLARI

Axmadov Dovudxon Xabibulloyevich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

dovudxon.axmadov.xon@gmail.com

Ma'lumki tarixning har qaysi bosqichida jamiyat hayotining moddiy asosini belgilovchi omil sifatida iqtisodiy xo'jalik munosabatlari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Sug'd jamiyatining tadqiq etilayotgan davridagi iqtisodiy, xo'jalik munosabatlari ham bevosita Sug'd konfederativ davlati hayotining asosini tashkil etgan.

Ilk o'rta asrlarda Sug'dning xo'jalik munosabatlari Mug' tog'i Sug'd hujjatlari topilishi bilan bog'liq holda, XX asr davomida bir qadar o'rganildi. Bu ishga chuqur manbahunoslik tadqiqotlari asosida V.A.Livshis, M.N.Bogolyubov, O.I.Smironova kabi olimlar katta hissa qo'shdilar.

Mug' tog'i hujjatlari fanda kengroq ma'lum bo'la boshlagan davrga (1934-1963 yillar) oid nashrlarda Sug'd xo'jalik hayoti masalalarining ba'zi qirralari aks eta boshladi. Masalan, SDGMning II va III kitoblarida xo'jalik mazmunidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, mazkur nashrning III kitobi Mug' tog'i hujjatlarining xo'jalikka oid qatlamiga maxsus bag'ishlangan¹. Ammo ushbu kitobga kiritilgan hujjatlarning o'qilish aniqligi, ularning ilmiy asosda izohlanganligi masalasida kamchiliklar mavjud. Bu farqlar ushbu nashrning II kitobida berilgan parallel o'qish va izoh variantlari bilan qiyoslanganda yaqqol ko'zga tashlanadi².

Sug'd xo'jaligida mulk yer maydonidan tashqari turli xil inshootlar, qurilishlar ko'rinishida ham qayd etilgan. M.N.Bogolyubov va O.I.Smironovalarning «Xozyaystvenniye dokumenti», deb nomlangan tadqiqotlarida, ba'zan butun mahallalari yer bo'ltaklari (M.Is'hoqov tarjimasi) sifatida daromad keltiruvchi xususiy mulk bo'lishini, hamda uning maydonida joylashgan ustaxona, suv xavzalari, ariq, jamoat

¹ СДГМ. III ... – С. 132.

² СДГМ. II... – 222 с.

foydalanishi uchun mo'ljallangan imoratlar kabi mulk turlari ham xususiy daromad manbaini tashkil etganini ko'rsatadi.

Qishloq sharoitida ham oddiy yer mulkchiligidan tashqari uning maydonidagi inshoot va qurilmalarga nisbatan ham mulk huquqi keng amal qilgan. Bu masalalarni biz Mug' tog'i hujjatlari asosida, jumladan Panch hokimi Devashtichga tegishli tegirmonlarning ijaraga berilishi va buning iqtisodiy hisob kitoblari, huquqiy jihatlari to'g'risidagi fikrlarini misol qilsak bo'ladi. Bu hujjatning dastlabki ilmiy nashri V.A.Livshis tomonidan amalga oshirilgan. Buning o'zbekcha ilmiy izohli nashri M.Is'hoqov tomonidan bajarilgan³.

V-4 raqamli hujjatda ijara obyekti sifatida uchta tegirmon dov dastgoxlari bilan birga, ularga qo'shimcha holda suv keltiruvchi ariq va novlar ham sanab o'tilgan. Har uch tegirmonning haqi sifatida ijaraga oluvchi Maxyan bir yilda 460 kafch (3680 kg) un to'lashi lozim bo'lgan⁴. Ijara haqi oy sari to'lab turilishi shartlar qatorida ko'rsatilgan.

Mug' hujjatlaridan yana biri (V-8 raqamli hujjat-xilxona uchun joy) yer oldi-sotdisi to'g'risida bo'lib, bu muomalada o'rta qo'yilgan mulk, uning xususiyati, joylashgan o'ri, oldi-sotdini maqsadi, mulkning turli o'zga da'volardan himoya qilish masalasi, nihoyat, mulkni narxi kabi xo'jalik ma'lumotlarini mujassam etgan⁵.

Mazkur hujjatda yer bo'lagi sotilishi haqida gap boradi. U sug'dcha *aksok* deb ataladi. Bu atamaning izohi aniqlangan emas. Hujjatda savdo muomalasiga qo'yilgan yerning nomi atalgach, ilk o'rta asrlarda Sug'd hujjatchiligiga xos qism boshlanadi. Unda savdoga kirishuvchi tomonlarning vakillari nomma-nom ataladi: xaridorlar Maxch va Xshumvand, sotuvchilar Shirvag'ch va Satafsarak. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, hujjatning avvalgi nashrlarida yerga nisbatan mulkchilik munosabatlari, oila shajarasining davomiyligi, ya'ni mulkning otadan bolaga va keyingi avlodga qolishi, nazariy jihatdan ko'zda tutilganligi alohida ta'kidlanmagan. Shu jihatdan M. Is'hoqovning quyidagi fikri diqqatga sazovardir: «Sug'dda yerga munosabat (balki umuman mulkka munosabat) oila a'zolarining, xususan, ota-bobolarning umumiy ishi

³ Исхоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар... – Б. 17-24.

⁴ Исхоқов М.М. Ўша асар, -Б. 19.

⁵ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда... – С. 108-111.

bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, patriarxal oila mulkchilik munosabatlariga amal qilingan»⁶.

Sug'd xo'jalik hujjatlari tahlili masalasiga alohida mavzu sifatida maxsus murojaat qilingan emas edi. Lekin bu masala turli nashrlarda, ularning maqsad va vazifa talablari darajasida tilga olingan.

Mug' to'plami tarkibidagi A-6 raqamli hujjat Xamir (yoki Amir) ismli shaxsdan framandarga yuborilgan maktub hisoblanib, mazmuniga ko'ra Xamir framandar tomonidan hasharga jalb qilingan odamlar ustidan nazoratchi sifatida tayinlangan shaxs. Xatda Xamirning odamlar unga bo'ysunmayotgani to'g'risida shikoyati va uning vakolatini tasdiqlashni so'rab yozgan murojaati aks etgan.

Shu kabi maktublardan biri B-13 raqamli hujjat framandarga undan quyiroq mansabni egallab turgan Spadak ismli shaxs nomidan yozilganligi aniqlangan. Bu holat maktubda «buyuk tayanchimiz»ga so'z birikmasi orqali ifodalangan. Maktubda framandardan olingan kiyim-kechak, Devashtich nomidan ajratilgan oziq-ovqat, meva, Litfir ismli shaxsga 200 kafch don va Spadak ixtiyorida turgan 50 bosh qo'yni berish to'g'risida Devashtich buyruq bergani haqida yoziladi. Ko'rinib turibdiki, hujjat framandarning vakili Spadak tomonidan xo'jalik sarf-harajatlari haqida yuborilgan hisobot ma'lumotidir⁷.

Spadak tomonidan framandarga yozilgan B-11 va B-15 raqamli hujjatlarda ham xazinaga kelib tushgan oziq-ovqat va ularning taqsimoti bilan bog'liq iqtisodiy vaziyat haqida axborot berilgan⁸.

Mug' to'plamiga kiruvchi B-18 raqamli hujjatda Izrovadk qishlog'ining Arspan lavozimida turgan Xufarn ismli kishi framandarga hunarmandchilik mahsulotlarini topshirish evaziga don va ot sovuti kabi zarur narsalar olinishi lozim bo'lgani holda ushbu almashuv amalga oshmagani to'g'risida xabar beradi⁹.

Sug'd xo'jaligiga oid Mug' hujjatlari orasida bir turkum charm tayyorlash va uning saroy omboriga topshirilishi haqida yozilgan tilxatlar mavjud bo'lib, uning nashrlari

⁶ Исхоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар... – Б. 22.

⁷ СДГМ III... – С. 97.

⁸ СДГМ III... – С. 65.

⁹ СДГМ III... – С. 84.

asosan M.N.Bogolyubov, O.I.Smirnovalar tomonidan amalga oshirilgan. Charm haqidagi hujjatlarning ko'pida (A-4, A-8, A-7, A-10, V-3, V-5) saroy omboriga topshirilgan charm va uning turlari to'g'risida yozilgan. Masalan, Govcharm (mol charmi), g'irocharm (eshak charmi) kabilar. Oshlanmagan teri esa *po'stak* deb ataladi¹⁰.

Bundan tashqari xo'jalik hujjatlari orasida hisobot (kirim, sarf harajat) qaydlari matnlari, pul sarf-harajatlari matnlari mavjud. Devashtich saroyining oziq-ovqat harajatlari izchil olib borilgani hujjatlarda ko'rinadi. Nov.6 hujjatida Devashtichning to'rt yillik hukmronlik davrining hisoboti saqlanib qolgan. Unda saroy xazinasiga kelib tushgan pullar bayoni aks etgan. Moliyaviy masalalarga doir yana A-5, A-11, V-9 kabi hujjatlarda pul birligi sifatida amal qilgan draxmlar haqida qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan. Numizmat olimlarning fikriga ko'ra, Sug'dda muomalada bo'lgan draxm pullari kumushdan bo'lib, kundalik sarf harajatlarda ishlatilmagan. Har kungi sarf harajatlarda bronzadan ishlangan tanga pullar bilan muomala qilingan. Bunga Sug'd hududidan topilgan ko'plab bronza tangalar guvohlik beradi¹¹. Qishloqlarda soliq va o'lponlar natura (mahsulot) ko'rinishida olingan. Xo'jalik hujjatlari orasida bug'doy, o'rik, may va boshqa mahsulotlarga oid daromad va kirim-chiqim rasmiy yozishmalari saqlangan. Shuningdek, qo'ylarni, terini, unni va mayni yetkazib berishga oid hujjatlar ham uchraydi¹². Hujjatlardan bug'doy, qo'y, may Panjikent hokimiga Yuqori Zarafshon qishloqlaridan olib kelinganligi ma'lum bo'ldi.

1. Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар...
2. Исҳоқов М.М. Ўша асар,
3. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда...
4. Исҳоқов М.М. Суғдиёна тарих чорраҳасида....
5. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет

¹⁰ Исҳоқов М.М. Суғдиёна тарих чорраҳасида... – Б. 24.

¹¹ Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет... – 548 с.

¹² СДГМ III... – С. 118-123.